

MINTAQALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI HUDUDIIY OMILLAR TIZIMI

Olimjanov Islomjon Odiljon o'g'li

“University of Business and Science”

rektor maslahatchisi

Annotatsiya

Maqolada mintaqalarning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi hududiy omillar yaxlit tizim sifatida o'rganildi va ularning tasnifi asoslandi. Muallif tabiiy-resurs, iqtisodiy-infratuzilmaviy, institutsional-huquqiy hamda inson kapitali guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini ochib berdi. Xalqaro baholash tizimlarining omil tarkibi qiyosiy tarzda ko'rib chiqildi va hududiy darajaga moslashtirish shartlari belgilandi. O'zbekiston mintaqalari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida umumiy investitsiya hajmi bilan xorijiy kapital oqimi o'rtasidagi tarkibiy tafovut aniqlandi. Olingan natijalar hududiy investitsiya siyosatida ustuvor omillarni tanlash, mintaqaviy raqobat ustunliklarini shakllantirish va investitsiya taklifini ixtisoslashtirish uchun uslubiy asos yaratdi.

Kalit so'zlar: hududiy omillar, investitsion jozibadorlik, mintaq, infratuzilma, institutsional muhit, inson kapitali, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, hududiy rivojlanish.

Аннотация

В статье территориальные факторы, влияющие на инвестиционную привлекательность регионов, исследованы как целостная система, обоснована их классификация. Автор раскрыл механизм взаимодействия между природно-ресурсной, экономико-инфраструктурной, институционально-правовой группами и группой человеческого капитала. Факторный состав международных систем оценки был рассмотрен сравнительно, определены условия его адаптации к региональному уровню. На основе официальных статистических данных по регионам Узбекистана выявлено структурное расхождение между общим объёмом инвестиций и потоком иностранного капитала. Полученные результаты создали методическую основу для выбора приоритетных факторов региональной инвестиционной политики, формирования конкурентных преимуществ регионов и специализации инвестиционного предложения.

Ключевые слова: территориальные факторы, инвестиционная привлекательность, регион, инфраструктура, институциональная среда, человеческий капитал, прямые иностранные инвестиции, региональное развитие.

Abstract

The article examined the territorial factors affecting the investment attractiveness of regions as an integral system and substantiated their classification. The author revealed the mechanism of interaction between the natural-resource, economic-infrastructural, institutional-legal and human capital groups. The factor composition of international assessment systems was reviewed comparatively, and the conditions for its adaptation to the regional level were defined. Drawing on official statistical data for

the regions of Uzbekistan, a structural divergence between the total volume of investment and the inflow of foreign capital was identified. The results provided a methodological basis for selecting priority factors of regional investment policy, forming regional competitive advantages and specialising the investment offer.

Keywords: territorial factors, investment attractiveness, region, infrastructure, institutional environment, human capital, foreign direct investment, regional development.

KIRISH

Investitsion jozibadorlikning hududiy tabaqalanishi zamonaviy iqtisodiy nazariyada ko'p omilli hodisa sifatida talqin etiladi. Bir davlat chegarasidagi mintaqalar bir xil qonunchilik maydonida faoliyat yuritisa-da, kapitalni jalb etish natijalari bo'yicha sezilarli farq qiladi. Ushbu farqning manbai alohida bir ko'rsatkichda emas, balki bir-birini to'ldiruvchi omillar majmuasining o'zaro ta'sirida yashiringan. Xalqaro ishlab chiqarish nazariyasi joy ustunliklarini mustaqil determinant sifatida ajratgan va ularning tarkibi resurs, bozor hamda samaradorlik yo'nalishlarini qamrab olishini ko'rsatgan [4].

Fazoviy iqtisodiyot nazariyasi omil tahliliga dinamik o'lcham qo'shdi. Masshtab samarasi, transport xarajatlari va bozor hajmining o'zaro nisbati iqtisodiy faoliyatning muayyan nuqtalarda to'planishiga olib keladigan o'z-o'zini kuchaytiruvchi jarayonni vujudga keltiradi [5]. Ushbu qoida hududiy omillarni statik ro'yxat emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin qilish zaruriyatini asoslaydi: bitta omilning kuchayishi qo'shni omillarning ta'sir darajasini ham o'zgartiradi.

Milliy darajada omillar tizimini o'rganish aniq huquqiy va strategik asosga tayanadi. Investitsiya munosabatlarining umumiy qoidalari, investorlar huquqlarining kafolatlari va davlat tomonidan rag'batlantirish yo'nalishlari yaxlit qonun bilan belgilangan [1]. Taraqqiyot strategiyasi hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishni ustuvor vazifa sifatida ilgari surgan [2], uning yangilangan bosqichi esa 2030-yilgacha mo'ljallangan yo'nalishlarni izchil davom ettirish tartibini mustahkamlagan [3].

Maqolaning maqsadi - mintaqalarning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi hududiy omillarni yaxlit tizim sifatida tasniflash, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini asoslash hamda tizimning amaldagi statistik ko'rsatkichlardagi ifodasini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Omil yondashuvining nazariy negizi joy ustunliklari konsepsiyasida shakllandi. Egallik, joylashuv va internallashtirish ustunliklarining uchligida aynan joylashuv komponenti hududga tegishli bo'lib, u resurs baziga, bozor hajmiga va faoliyat xarajatlariga bog'liq holda o'zgaradi [4]. Empirik tekshiruvlar ushbu komponentning tarmoq tarkibi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib, omillarni universal emas, balki tarmoqqa bog'liq tarzda tahlil qilish zaruriyatini asoslab berdi.

Fazoviy tahlil an'anasi omillarning kumulyativ ta'sirini modellashtirdi. O'suvchi daromadlilik sharoitida ishlab chiqaruvchilar yirik bozorga yaqin joylashishni afzal

ko'radi, joylashuvning o'zi esa bozorni yanada kengaytiradi [5]. Ushbu mexanizm hududiy siyosat uchun muhim xulosa beradi: infratuzilma va bozor hajmi bilan bog'liq omillarga kiritilgan sarmoya vaqt o'tishi bilan qo'shimcha samaraga ega bo'ladi.

Xalqaro baholash tizimlari omil tarkibini standartlashtirdi. Biznes-muhitni baholash uslubiyati tartibga solish bazasi, davlat xizmatlari va operatsion samaradorlik ustunlari kesimida korxona hayotiy siklining o'n bosqichini qamrab oladi [8]. Uslubiyatning ahamiyati shundaki, u huquqiy me'yorlarni ularning amaliy ijrosidan alohida o'lchaydi va institutsional omilni ikki qatlarga ajratadi [9]. Hisobot seriyasining bosqichma-bosqich kengayishi mamlakatlararo qiyosiy tahlil bazasini mustahkamlamoqda [10].

Tartibga solish omilining miqdoriy o'lchovi alohida indeks orqali ta'minlanadi. Ushbu indeks ulushli ishtirok chegaralari, tekshiruv va ruxsat berish tartiblari, xorijiy xodimlarga nisbatan talablar hamda operatsion cheklovlarni yigirma ikki tarmoq kesimida qamrab oladi [12]. So'nggi yangilanish natijalari cheklovlar tarkibida ulushli ishtirok chegaralari yetakchi o'rin egallashini ko'rsatdi [13], indeks ma'lumotlari esa muntazam yangilanib boradi [11]. Kamroq cheklovga ega tartibga solish tizimiga ega mamlakatlar nisbatan ko'proq xorijiy investitsiya jalb etishi statistik jihatdan qayd etilgan [14].

Hududiy darajadagi omillar tizimi Yevropa tajribasida eng to'liq ishlab chiqilgan. Mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksi institutlar, makroiqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim, mehnat bozori samaradorligi, bozor hajmi, texnologik tayyorgarlik, biznes murakkabligi va innovatsiyalar ustunlarini birlashtiradi [6]. Indeksning konseptual yangiligi shundaki, u korxonalar manfaati bilan bir qatorda aholining yashash sharoitini ham omil sifatida hisobga oladi [7]. Maxsus huquqiy rejimlar bo'yicha xalqaro tahlil esa institutsional omilni sun'iy kuchaytirish imkoniyatini, biroq natija joylashuv va boshqaruv sifatiga bog'liqligini ko'rsatdi [21].

Global investitsiya konyunkturasi omillar tizimining tashqi chegarasini belgilaydi. 2024-yilda jahon bo'yicha oqimlar tarkibida sezilarli o'zgarish kuzatildi va Osiyo yetakchi qabul qiluvchi mintaqa bo'lib qoldi [16]. Keyingi davr ma'lumotlari rivojlanayotgan Osiyoning global hajmdagi ulushi yuqori darajada saqlanganini qayd etdi [17]. Raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan xalqaro investitsiyalarning ortib borishi [15] va yashil o'tish loyihalarining kengayishi omillar tizimiga raqamli infratuzilma hamda energetika barqarorligi kabi yangi elementlarni qo'shdi; loyihalar dinamikasi bo'yicha oraliq ma'lumotlar monitoring sharhlarida umumlashtirilgan [18].

Adabiyotlar tahlili omillarning alohida guruhlarini yaxshi o'rganilganini, biroq ularning hududiy darajadagi o'zaro ta'sir mexanizmi yagona sxemada kam ifodalanganini ko'rsatdi. Ushbu holat quyidagi bo'limlarning tadqiqot yo'nalishini belgiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-amaliy xarakterga ega. Omillarni tasniflashda tizimli yondashuv qo'llanildi: har bir omil guruhi uchun ta'sir obyekti, ta'sir kanali va o'lchov ko'rsatkichi ajratildi. Guruhlar o'rtasidagi bog'liqlik mantiqiy modellashtirish orqali ifodalandi va grafik sxema ko'rinishida taqdim etildi.


Qiyosiy tahlil xalqaro baholash tizimlarining omil tarkibi bo'yicha o'tkazildi. Biznes-muhitni baholash uslubi [8], tartibga solish cheklovlari indeksining metodologik ramkasi [12] va hududiy raqobatbardoshlik indeksining ustun tuzilmasi [6] birlamchi uslubiy manba sifatida tanlandi. Ushbu hujjatlar ochiq kirish rejimida taqdim etilgani natijalarning tekshiriluvchanligini ta'minladi.

Empirik qism Milliy statistika qo'mitasining asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha yillik rasmiy axborotiga tayanadi [19]. Hududiy kesimdagi ko'rsatkichlar o'zgartirilmagan holda, manba birligida keltirildi. Qo'shimcha ma'lumot manbai sifatida hududiy statistika boshqarmasi materiallari [22] va rasmiy investitsiya portali [20] qo'llanildi. Tahlil davri sifatida to'liq yillik ma'lumotlar mavjud bo'lgan 2023-yil tanlandi; qisqa davrli oraliq ko'rsatkichlar qiyosiy tahlilga kiritilmadi.

Tadqiqotning uslubiy chegarasi shundan iboratki, omillar ta'sirining miqdoriy og'irligi ekonometrik usulda baholanmagan. Taqdim etilgan tizim keyingi regression va indeks tahlillari uchun konseptual ramka vazifasini bajaradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy omillarni to'rt guruhga ajratish tahlil mantiqini soddalashtiradi va ayni paytda ularning o'zaro bog'liqligini saqlab qoladi. Birinchi guruh tabiiy-resurs va geografik omillarni birlashtiradi: xomashyo bazasi, yer resurslari, iqlim sharoiti hamda tranzit yo'nalishlariga nisbatan joylashuv. Ikkinchi guruh iqtisodiy va infratuzilmaviy omillarni qamrab oladi: hududiy bozor hajmi, energetika ta'minoti, transport tarmog'i va raqamli aloqa imkoniyatlari. Uchinchi guruh institutsional-huquqiy omillardan iborat: kafolatlar tizimi, tartib-taomillarning shaffofligi, maxsus rejimlar va mahalliy boshqaruv sifati. To'rtinchi guruh inson kapitali va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi: kadrlar malakasi, ta'lim tizimining darajasi, mehnat bozori moslashuvchanligi va turmush sifati. Guruhlarning o'zaro joylashuvi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Mintaqaning investitsion jozibadorligini shakllantiruvchi hududiy omillar tizimi¹

¹ Manba: [4], [5], [6] va [8] manbalaridagi omil tuzilmalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Sxemaning asosiy mantig'i omillarning ketma-ket to'ldiruvchi ta'sirida namoyon bo'ladi. Tabiiy-resurs ustunligi investorni hududga jalb etadi, biroq infratuzilma yetishmasa, ushbu ustunlik real loyihaga aylanmaydi. Infratuzilma mavjud bo'lgan taqdirda ham institutsional muhit sifati loyiha muddatini va tavakkalchilik darajasini belgilaydi. Barcha uch shart bajarilganda esa yakuniy natija inson kapitalining moslik darajasiga bog'liq bo'lib qoladi. Omillarning bunday zanjirli tabiati hududiy siyosatda eng zaif bo'g'inni aniqlash va aynan unga resurs yo'naltirish tamoyilini asoslaydi.

Omilar tizimining amaldagi ifodasini rasmiy statistika yaqqol ko'rsatadi. 2023-yilda respublika bo'yicha asosiy kapitalga 352,1 trln so'm investitsiya o'zlashtirildi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi esa 84 311,6 mlrd so'mni tashkil etdi [19]. Hududiy taqsimotning tarkibiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston hududlari kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar va xorijiy kapital oqimlari, 2023-yil¹

Hudud	Asosiy kapitalga jami investitsiyalar, trln so'm	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd so'm	Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya hamda kreditlar, mlrd so'm
Toshkent shahri	67,9	8 714,2	8 239,1
Toshkent viloyati	44,4	6 080,4	17 432,3
Andijon viloyati	31,3	7 501,3	3 202,8
Samarqand viloyati	26,6	6 894,0	3 616,9
Navoiy viloyati	25,9	6 296,8	7 946,7
Buxoro viloyati	18,2	12 496,0	5 805,1
Surxondaryo viloyati	18,0	8 083,5	2 520,8
Sirdaryo viloyati	15,3	9 722,7	2 700,8
Xorazm viloyati	12,1	1 399,7	3 403,6
O'zbekiston Respublikasi	352,1	84 311,6	82 419,8

1-jadval ma'lumotlari muhim tarkibiy qonuniyatni ochib beradi. Umumiy investitsiya hajmi bo'yicha yetakchilik iqtisodiy massa va infratuzilma omillari kuchli bo'lgan hududlarda to'plangan: Toshkent shahri 67,9 trln so'm, Toshkent viloyati 44,4 trln so'm ko'rsatkichiga ega [19]. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha esa taqsimot boshqacha shakllangan: Buxoro viloyati 12 496,0 mlrd so'm bilan birinchi

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi [19].

o'rinni egallagan, Sirdaryo viloyati 9 722,7 mlrd so'm bilan uchinchi natijani ko'rsatgan [19].

Ushbu tafovutning iqtisodiy mazmuni omillar tizimi orqali izohlanadi. Umumiy investitsiya hajmi asosan bozor hajmi, qurilish faolligi va markazlashgan moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lsa, xorijiy kapital oqimi tarmoq ixtisoslashuvi, maxsus rejimlar va aniq loyihalar portfeli bilan belgilanadi. Sirdaryo viloyati misolida bu holat texnologik tarkibda ham ko'rinadi: viloyatda mashina va uskunalarga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi 66,0 foizni tashkil etib, respublikada eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etilgan [19]. Andijon viloyatida esa qurilish-montaj ishlarining ulushi 66,8 foizga yetgan [19]. Ikki hududning tarkibiy farqi ularning omil ustunligi ham turlicha ekanini bildiradi.

Moliyalashtirish manbalari kesimidagi ma'lumotlar institutsional omilning ta'sirini qo'shimcha tasdiqlaydi. Respublika bo'yicha jami investitsiyalarning 66,4 foizi jalb etilgan mablag'lar hisobidan, 33,6 foizi esa korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan [19]. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi bir yil ichida 9,1 foiz punktga oshib, 24,0 foizga yetgan [19]. Xorijiy kapital va kreditlar hajmi keyingi davrda ham salmoqli darajada saqlanib qolgani hududiy statistika materiallarida qayd etilgan [22].

Investor-mamlakatlar tarkibi geografik omilning amaliy ifodasini beradi: 2023-yilda Xitoy 25,6 foiz, Rossiya 13,4 foiz, Saudiya Arabistoni 7,9 foiz, Turkiya 6,4 foiz ulushga ega bo'lgan [19]. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning 38,0 foizi ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan [19]. Mazkur tarkib mintaqalar uchun aniq ixtisoslashuv signali bo'lib xizmat qiladi va investitsiya taklifini shakllantirishda tarmoq ustuvorligini belgilash imkonini beradi. Milliy investitsiya portali orqali imtiyoz rejimlari va loyiha imkoniyatlari haqidagi axborotning tizimli taqdim etilishi ushbu signalning investorga yetib borishini yengillashtiradi [20].

Tashqi konyunktura omillar tizimining barcha guruhlariga bir vaqtda ta'sir ko'rsatadi. Osiyo mintaqasining yetakchi qabul qiluvchi maqomi [16] va rivojlanayotgan Osiyoga yo'naltirilgan oqimlarning yuqori ulushi [17] hududlar uchun qulay tashqi sharoit yaratadi. Raqamli iqtisodiyot yo'nalishidagi xalqaro investitsiyalarning kengayishi [15] esa raqamli infratuzilma va malakali kadrlar omillarining nisbiy og'irligini oshiradi. Loyihalar soni va qiymati bo'yicha global o'zgarishlar [18] mintaqalar oldiga taklifni tez moslashtirish vazifasini qo'yadi.

Umumlashtirilgan natija quyidagicha ifodalanadi: hududiy omillar tizimi ierarxik emas, balki to'ldiruvchi tuzilishga ega bo'lib, mintaqaning investitsion jozibadorligi eng zaif omil guruhi darajasida shakllanadi. Statistik ma'lumotlar bu qoidani tasdiqlaydi: yuqori iqtisodiy massaga ega hududlar umumiy investitsiya bo'yicha yetakchilik qilsa-da, xorijiy kapital jalb etishda maxsus rejim va tarmoq ixtisoslashuviga tayangan hududlar undan kam bo'lmagan natijaga erishmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil bir necha asosli xulosaga olib keldi. Birinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar to'rt guruhga birlashtirilishi va yaxlit tizim sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, omillar o'rtasida

almashinuvchanlik emas, to'ldiruvchilik munosabati amal qiladi; bitta guruhning yuqori darajasi boshqasining zaifligini qoplay olmaydi. Uchinchidan, umumiy investitsiya hajmi va xorijiy kapital oqimi turli omil kombinatsiyalari bilan shakllanadi, shuning uchun hududiy siyosatda ikki ko'rsatkich alohida maqsad sifatida belgilanishi lozim.

Amaliy takliflar quyidagicha shakllantirildi. Har bir mintaqaga uchun omil guruhlari bo'yicha diagnostik profil tuzish tavsiya etiladi; profilning tuzilmasi hududiy raqobatbardoshlik indeksining ustun mantiqiga [6] va biznes-muhitni baholashning ikki qatlamli yondashuviga [8] asoslanishi mumkin. Diagnostika natijasida aniqlangan eng zaif bo'g'in hududiy dasturlarning ustuvor moliyalashtirish obyektiga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'nalish tarmoq ixtisoslashuvini mustahkamlash bilan bog'liq. Ishlab chiqarish sanoatining xorijiy investitsiyalar tarkibidagi yetakchi ulushi [19] har bir hudud uchun ikki-uch tarmoqdan iborat aniq ixtisoslashuv yadrosini belgilash imkonini beradi. Maxsus huquqiy rejimlarning natijadorligi institutsional dizayn sifatiga bog'liqligi [21] hisobga olinib, mavjud zonalar faoliyatining muntazam monitoringi yo'lga qo'yilishi zarur.

Uchinchi yo'nalish institutsional omilni takomillashtirishga qaratiladi. Amaldagi qonunchilik investorlar huquqlarining keng kafolatlarini nazarda tutadi [1], strategik hujjatlar esa hududiy rivojlanish ustuvorliklarini aniq belgilagan [2]. Yangilangan strategik bosqich doirasidagi vazifalarning hududiy darajada izchil bajarilishi [3] institutsional omilning barqaror kuchayishini ta'minlaydi. Tartibga solish cheklovlarining kamayishi xorijiy investitsiya oqimining o'sishi bilan bog'liqligi [14] mahalliy tartib-taomillarni soddalashtirish yo'nalishidagi ishlarning iqtisodiy samarasini ko'rsatadi.

Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida omillarning miqdoriy og'irligini panel ma'lumotlar asosida baholash, mintaqalar bo'yicha kompozit omil indeksini hisoblash va uning xorijiy investitsiya oqimlari bilan statistik bog'liqligini tekshirish belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni - <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-8050769>
4. Dunning, J. H. Toward an Eclectic Theory of International Production: Some Empirical Tests // Journal of International Business Studies. - 1980. - Vol. 11, No. 1. - P. 9-31. <https://doi.org/10.1057/palgrave.jibs.8490593>

5. Krugman, P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, No. 3. - P. 483-499.
<https://ideas.repec.org/a/ucp/jpolec/v99y1991i3p483-99.html>
6. Dijkstra, L., Papadimitriou, E., Cabeza Martinez, B., De Dominicis, L., Kovacic, M. EU Regional Competitiveness Index 2.0 - 2022 edition // European Commission, Working Papers. - Brussels, 2023.
https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/publications/working-papers/2023/eu-regional-competitiveness-index-2-0-2022-edition_en
7. European Commission. EU Regional Competitiveness. - Brussels: DG REGIO.
https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/maps/regional-competitiveness_en
8. World Bank. Business Ready Methodology Handbook. First Edition, October 2024. - Washington, DC, 2024.
<https://thedocs.worldbank.org/en/doc/357a611e3406288528cb1e05b3c7dfda-0540012023/original/B-READY-Methodology-Handbook.pdf>
9. World Bank Group. Business Ready 2024. - Washington, DC: World Bank, 2024. <https://www.worldbank.org/en/businessready/publications-2024>
10. World Bank. Business Ready: Reports. - Washington, DC.
<https://www.worldbank.org/en/businessready/reports>
11. OECD. FDI Regulatory Restrictiveness Index. - Paris: OECD.
<https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/sustainable-investment/fdi-regulatory-restrictiveness-index.html>
12. OECD. OECD FDI Regulatory Restrictiveness Index: Methodological Framework. - Paris: OECD Publishing, 2024. <https://doi.org/10.1787/6491e99d-en>
13. OECD. OECD FDI Regulatory Restrictiveness Index 2024: Key Findings and Trends // OECD Business and Finance Policy Papers, No. 93. - Paris: OECD Publishing, 2025. <https://doi.org/10.1787/88e61362-en>
14. OECD. FDI Restrictiveness (indicator). - Paris: OECD Data.
<https://www.oecd.org/en/data/indicators/fdi-restrictiveness.html>
15. UNCTAD. World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. - Geneva: United Nations, 2025.
<https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
16. UNCTAD. Global Foreign Direct Investment Falls for the Second Consecutive Year, Posing Acute Challenges to Developing Countries. Press release, 19 June 2025. <https://unctad.org/news/global-foreign-direct-investment-falls-second-consecutive-year-posing-acute-challenges>
17. UNCTAD. Developing Asia Leads Investment Among Developing Regions as Patterns Shift Within the Region. - Geneva, 2026.
<https://unctad.org/news/developing-asia-leads-investment-among-developing-regions-patterns-shift-within-region>
18. UNCTAD. Global Investment Trends Monitor, No. 48, January 2025. - Geneva, 2025. https://unctad.org/system/files/official-document/diaeiainf2025d1_en.pdf

19. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2023-yil yanvar-dekabr. - Toshkent, 2024. https://stat.uz/img/press-relizlar/investitsiya_uzb_23_01.pdf

20. Invest Uzbekistan. O‘zbekiston Respublikasining rasmiy investitsiya portali. <https://invest.gov.uz/uz/>

21. World Bank Group. Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts. - Washington, DC: World Bank, 2017. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/29054>

22. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi. <https://samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/13586-o-zbekistonda-xorijiy-investitsiya-va-kreditlar-tarkibi>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyul, 7-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**